

## “QADIMIY DAVRDA SAN’ATNING PAYDO BO’LISHI”

**Tursunboyev Asadbek Ravshanbek o’g’li**

Andijon davlat universiteti, san’atshunoslik fakulteti

“An’anaviy honanda” yo’nalishi 3-kurs talabasi

**Botirova Xilola Tursunboyevna**

Ilmiy rahbar, Andijon davlat universiteti dotsenti

### **Anotatsiya**

ushbu maqolada qadimiy davrda san’atning paydo bo’lishi, uning o’rni va ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** San’at, Ilk san’at na’munalari, Altamira Kapovaya va Lasko g’orlari, O’zbekiston hududidagi qoyatosh suratlari, antik davr, uyg’onish davri.

San’at-insonni go’zallikka ruhan va ma’naviy kamolotga erishishiga xizmat qiladi. Har bir xalqning urf-odatlari, an’analari, asrdan asrga o’tib kelayotgan ma’naviy qadriyatlarini san’atsiz tasavvur qilishimiz qiyin. San’at-zamon va makondagi voqeylek asosida qadrlangan qadriyatlarning qadrlanishi va qadrsizlangan qadriyatlarni ko’rsatib beradigan ko’zgudir. San’at estetik faoliyatning o’ziga

hos turlaridandir. Shu sababli insoniyat tarixida san’atsiz yashab o’tilgan davr yo’q. San’atning paydo bo’lishi ham insoniyat hayotining ilk davriga borib taqaladi. Qadimgi ajdodlarimiz qoyatoshlarga chizib qoldirilgan rasmlar ilk san’at na’munalari. Qoyatosh suratlarining o’ziga hos tomoni shundaki, ular insoniyat tomonidan hali yozuv paydo bo’lmasidan oldin yaratildi. Bu san’at na’munalari olimlarning qadimgi davr tarixini yaratishlarida muhim bir manba hisoblanadi.

Ularda qadimiy odamlarning kundalik hayoti, mashg’ulotlari va turmush tarzi ifodalangan. Ayniqsa ajdodlarimizning eng qadimiy mashg’ulotlari hayvonlarni ovlash manzarasi ko’p uchraydi.

Ilk qoyatoshsuratlari ham dastlab mill.avv.15-8 ming yilliklarda kromonyon odamlari yaratganlar. Bu davrda qadimgi rassomlar ilk suratlarini, asosan qoyatoshlarga o’yib ishlaganlar. Ularning bir qismi Ispaniyadagi dunyoga mashhur Al Tamira va Fransiyadagi Lasko g’orlarida hamda Boshqirdistondagi Kapovaya g’oridan topilgan. O’sha zamonda tasviriy san’at ustalari hayvonlarni tasvirlashda turli moddalar qorishmasidan, rangli bo’yoqlardan, toshdevordagi rasmlarni bo’yashda esa, tayoqcha yoki hayvon junidan tayyorlangan mo’yqalamda foydalanishgan. Bu esa suratlarning hozirgi davrgacha deyarli hech biri o’zgarishsiz saqlanib qolishiga sabab bo’lgan. Ularni o’rganish qadimiy insoniyat dunyosini yanada yahshiroq tasavvur qilishga yordam beradi. Ajdodlarimizdan qolgan noyob durdona asarlardan O’zbekiston hududida ham qoyatosh suratlarda aks ettirilgan. Ushbu

Suratlар асосан иккى xил usulda urib cho'kishlash va tabiiy bo'yoqlar yordamida ishlangan. Keyinchalik rasmlar uchi o'tkir tig'li temir va po'lat asboblar bilan toshlarni o'yib hosil qilishgan. Suratlarda - cho'p qamish, suyak va qushlarining pastki vositasida jilo berilgan. O'zbekistonda 100 dan ortiq anashunday nodir san'at na'munalari aniqlangan. Xususan Navoiy viloyatidagi Qoratog' tizmasidagi Sarmishsoy darasidan topilgan. Sher, yo'lbars kabi yirtqich hayvonlarning to'qnashuvi, ovchining kamdankam hollarda qo'lga o'rgatiladigan ov qoploni GEPORT yordamida yovvoyi buqani ovlashi tasvirlangan. Bunday noyob san'at durdonalar har bir xalqning tarixida gavdalaniadi.

Tarixdan ma'lumki, san'atga doir ma'lumotlar Antik davrdan boshlab Yunonistonda o'rganila boshlagan. Yani bu davr uyg'onish davri deyilganligi ma'lum.

ARISTOTEL, PLATON kabi o'sha davrning eng yirik faylasuflari YUNONISTONDA san'at tarixi bilan ham shug'ullanganligi to'g'risida ma'lumotlar saqlangan.

Qadimgi Rimda Yunon san'atiga katta e'tibor bilan qaralgan. Millodiy asrlarda O'rta osiyo davlatlarida me'morchilik va san'atga doir risolalar yaratilgan. Ular mazmuni jihatidan hammabop bo'lib, ham metodik qo'llanma, hamda o'qish kitobi sifatida hizmat qilar va kitobxonlar e'tiboriga tarix, hikoyalar, nasihat va mushohadalar havola qilinadi. O'rta asrlarda Ovropada san'at ilohiyat ham deyilgan. San'atning narigi dunyoning bu dunyodagi moddiy obrazi deb ham takidlashgan.

Yani; Uyg'onish davri san'at rivojida muhim davr bo'lib tarix zarvaroqlarida qayd etildi

## XULOSA

San'at har bir millat ko'zgusidir. Uning qadriyatları san'atda mujassamdir. 14-16-asrlarga kelib insonparvarlik va realism g'oyalari bilan bir qatorda san'atni cherkov ta'sirida ajratishga intilish kuchaydi. Va uni ilmiy tasvirlash yo'lida muhim bir qadam qo'yildi. BU davrning ko'p risolalarida rassom, haykaltaroshlarga yo'l yo'riqlar ko'rsatildi. Umuman san'at uning nazariyasi va tarixi bo'yicha qimmatli asarlar vujudga keldi. LEONARDO DA VINCHI kabi rasssom va me'morlarning san'at asarlari, inson ma'naviy hayotini aks ettirishi kabi muhim ahamiyatga ega.

## Foydalanimanligi adabiyotlar

1. Tarixdan hikoyalar
2. ( U.Jo'rayev, Q.Usmonov, A.Nurqulov, G.Jo'rayeva).